

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA-MAXSUS TALLIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLI INSTITUTI

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti

Falsafa yo'nalishi

QADIMGI XITOIY FALSAFIY
MAKTABLARINING YUZAGA KELISHI

mavzusidagi

REFERAT

Bajardi: 3 – kurs xitoy-ingliz guruhi talabasi Kenjayev Komiljon

Qabul qildi: f.f.n. dotsent Qodirov Muhammadjon

Ushbu referat Qadimgi Xitoyda falsafiy maktablarning vujudga kelishi, shakllanishi va taraqqiy etishi, Konfutsiy, Lao-szi va Gunsun Lun kabi xitoy faylasuflarning tabiiy-ilmiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlariga bag'ishlangan.

TOSHKENT - 2012

REJA:

1. Qadimgi Xitoyda fasafiy maktablarning yuzaga kelishi.
2. Xitoy falsafasida naturfalsafiy g`oyalarning urni.
3. Qadimgi Xitoy falsafiy maktablari ta`limotlarining hozirgi davrdagi ahamiyati.
4. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Tayanch iboralar: *oliy hukmdor (shandi), oddiy osmon (tyan), Konfutsiy, In – Yan, “Li” - urf-odat va marosimlarga rioya etish, udum; “Si” - axloqiy me`yorlarni amalga oshirish; “In” - ijobiy ibtido, “Yan” - salbiy ibtido, “Dao” - osmon, koinot yo`li, “Chjen” - insonparvarlik, “I” - burch, “Sin” – samimiylilik, Ismlar maktabi, Moistlar maktabi, Legizm.*

1. QADIMGI XITOIDA FALSAFIY MAKTABLARNING YUZAGA KELISHI

Qadimgi Xitoy ijtimoiy falsafiy fikr dastlab vujudga kelgan va taraqqiy etgan mamlakatlardan biri edi. Xitoyda fan va madaniyat o`ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o`rtalariga keib, Yuan-in davlatida muayyan xo`jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo`liga o`tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash ustivorlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo`lishini o`ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o`z ta`sirini o`tkazgan.

Qadimgi Xitoy falsafasida turli xil yo`nalish va oqimlar mavjud. Ularda falsafiy tafakkur qadriyatlarini ishlab chiqishga uringan mashhur kishilar, o`z davrining ko`zga ko`ringan donishmandlari tabiat, jamiyat va inson hayotiga taalluqli bo`lgan ko`pgina muammolarning real yechimini izlaganlar. Bunday muammolarni o`z ijtimoiy ideallaridan kelib chiqqan holda hal etishga uringanlar. Tabiiyki muammolarning yechimi bir xil emas, chunki olam cheksiz va benihoiyadir. Ularni chegaralangan nazariy tamoyillar tizimi vositasida qamrab olish mumkin emas. Falsafiy maktablar, yo`nalishlarning turli-tumanligini, shu bilan izohlash mumkin.

Xitoy mifologiyalarida butun koinot - osmon, er va tabiat hodisalari ilohiylashtirilgan bo`lib, inson hayot kechirish muhitini tashkil qiladi. Aynan shu afsonalashtirilgan muhitdan narsalar, hodisalar mavjudligini ta`minlaydigan, ularni boshqarib turadigan oliy bir tamoyil keltirib chiqariladi. Bu tamoyil ko`pincha oliy hukmdor (shandi), ba`zan esa oddiy osmon (tyan) sifatida ishlatib kelingan.

Qadimgi Xitoy fasafasi konservativ sivilizatsiyaning bir qismi bo`lib u diniy matnlar madaniyatiga tayanardi. Hindistonda bo`lgani kabi, ozod bo`lish yoki xalos bo`lishga nisbatan qiziqish unchalik kuchli bo`lmagan. Aksincha, u ko`proq amaliy va pragmatic yo`nalishga ega edi.

Xitoy faylasuflari asosan kambag'al a'yonlarga mansub bo'lgan. Ular ko'pincha g'oyat ulkan imperatorlik saroylari qoshida amal qilgan ma'muriy tizim sektorlarida faoliyat yuritishgan. Ko'pgina buyuk xitoy mutafakkirlari ana shu ijtimoiy muhitning samarasi sifatida dunyoga kelgan.

Ko'pchilik tomonidan hurmat-ehtirom ila tan olingan donishmandlar ta'sirida asta-sekin Xitoy falsafiy tafakkuri shakllana borgan. Ko'p hollarda ularning ismlari aniq bo'lmasada, aynan ular asotirlar, afsonalar ma'naviy ta'siridan ozod bo'la borganlar va olam to'g'risidagi ilk dunyoqarashni.ozlarida shakllantirib, rivojlantirganlar. Ularningqarashlarida afsonaviy va dunyoviy bilimlar bir-biri bilan bevosita bog'lanib, bir-birini to'ldirib brogan Xitoy falsafasi o'zining gullab yashnagan vaqtiga "urushuvchi davlatlar" deb atalgan davrda erishdiki, uni Xitoy falsafasining "oltin davri" (eramizdan avvalgi VI-IIIasrlar) deb atadilar. Asosiy falsafiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat edi: in-yan, konfutsiychilik, daosizm, ismlar maktabi, moizm, legizm.

In - Yan. Qadimgi Xitoydagi ilk falsafiy ta'limotlarga ko'ra, osmon va yer bilan chegaralangan olam in hamda yan tamoyillariga amal qiladi. Yan tamoyili narsalar mohiyatiga faol kirib boruvchi kuch sifatida talqin qilinsa, in esa passiv kuzatuvchi, zulmatni ifodalovchi tushunchadir.Lekin ularni bir-birini rad etuvchi jihatlar tariqasida tushunish xato, chunki ularning hamjihatligi tufayli kuchlar birlashadi, uzilgan yo'nalishlar muayyan shaklga ega bo'ladi, yer bilan osmon o'zaro munosabatlari ochib beriladi. Yan va in harakati - bir butunlik o'zgarishining dialektik harakati. Narsa va hodisalarning o'zaro hamkorligi ularning o'zgarishi orqali ta'minlanadi. Yan va inning o'zaro harakati natijasida oltita kategoriyalar paydo bo'ladi. Bular - momaqaldir, shamol, olov, cuv, qaytish va osoyishtalik. Ushbu kategoriyalar Osmon, Yer va Inson bilan bog'liq muammolarni yoritishda keng qo'llanilgan.

Konfutsiychilik qadimgi Xitoyda vujudga kelgan va hozirgi kunga qadar o'z ta'sirini yo'qotmay kelayotgan falsafiy maktabdir. Konfutsiy an'analarga qattiq rioya qilgan mutafakkirdir.Uning ta'limotida qadimgi yozma manbalarni o'rganish

markaziy o'rin tutadi. Konfutsiy o'zi haqida shunday deydi: “Eskini bayon qilaman va yangini yaratmayman”.

Konfutsiy tabiat falsafasi va din falsafasiga unchflik qiziqish namoyon qilmaydi balki, insonni diqqat markaziga qo'yadi. U va uning izdoshlari jamiyatning parchalanib ketishidan bezovta bo'lishganliklari sababli asosiy e'tiborini insonni o'z atrofida qilarga va jamiyatga nisbatan hurmatruhida tarbiyalashga qaratdilar. Shaxs o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun shaxsdir. Konfutsiychilik axloqi insonni uning ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq ravishda tushunadi, ta'lim va tarbiyani esa, insonni ana shu vazifani bajarishga olib keladigan narsa sifatida idrok qiladi.

Konfutsiychilik Sharq xalqlari ongida shunday axloqiy me'yorlarni shakllantirdiki, o'zining omma ongiga ta'sir kuchi jihatidan uni Injildagi 10 diniy buyruq bilan solishtirish mumkin. Bu avvalo, besh muqimlik, yoki besh fazilat - insonparvarlik, burchga codiqlik, tavfiqlik, aqlga muvofiqlik, haqiqatgo'ylikdir. Shuningdek konfutsiychilik besh aloqa qoidasini, ya'ni jamiyatdagi munosabatlar tizimini ham ishlab chiqdi - bular davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi, ota-onalar bilan bolalar, er va xotin, kattalar bilan kichiklar va do'stlar o'rtasidagi munosabatlardir. Xo'jayinga sodiqlik va vafodorlik eng muhim va ustun sanalar edi. Konfutsiychilikning asosiy axloqiy-siyosiy qoidalari quyidagilardan iborat edi:

-“xalqni shafqat bilan boshqarish va xalq ichiga xulq-atvor oidalari yordamida tartibni joriy qilish”;

-“osmon irodasidan qo'rqish” va “o'lganlar ruhini hurmat bilan yodga olish”;

-“tug'ma bilimlarga ega bo'lganlar” (mukammal donishmandlar) va “o'qish-o'rganish natijasida bilimga ega bo'lganlar” mavjudligini tan olish, ya'ni o'qish-o'rganish tufayli bilimlarni kashf etish imkoniyati borligi va ta'lim-tarbiyaning buyuk rolini qayd etish;

-“Oltin o’rtamiyonalik yo’li”, “ikki qarama-qarshi qirrani qo’lda ushlab, ammo xalq uchun o’rtachasidan foydalanish”, qoidasini qo’llash, ya’ni qarama-qarshiliklarni yumshatish va murosasozlik nazariyasiga rioya etish.

Konfutsiy tomonidan birinchi marta “oltin qioda” deb nom olgan va keyinchalik ko’pchilik mutafakkirlar tomonidan qolipga solingan - “o’zingga ravo ko’rmagan narsani boshqa odamlarga ham ravo ko’rma” qoidasi shakllantirildi. Konfutsiychilikning yana bir muhim jihati “ismlarni tuzatish” talabi ediki, ungabinoan agar jamiyatda “hukmdor, hukmdor bo’lmasa, xizmatkor xizmatkorlik qilmasa, o’g’il o’g’liligini qilmasa”, ya’ni shunday vaziyat vujudga kelsaki, u besh aloqa talab etgan ta’limot tashqarisiga chiqsa, voqelikni tuzatish, jumladan, kuch ishlatib bo’lsa ham tartibni joriy etish zaruriyatini tan olish lozim. Shundagina jamiyatdagi tabaqalar o’rtasidagi munosabatlarni qat’iy ravishda tiklash mumkin bo’ladi.

Eramizdan oldingi 200-yil bilan eramizning 220-yiligacha bo’lgan davrda konfutsiychilik din sifatida ham shakllandi. O’zining mazmuniga ko’ra konfutsiychilik diniy marosimi qadimgi Xitoyda tashkil topgan oilaviy-urug’chilik urf-odatlarini qonuniylashtirib, qadimgi qonun va ko’rsatmalarga qat’iyan rioya etish talabi bilan chiqdi. Ulardan eng muhimi ajdodlarga sig’inish edi. Konfutsiychilikning diniy e’tiqodiga ko’ra, ajdodlar ruhini hurmatlash va o’g’illik ehtiromi (syao) insonning bosh majburiyatidir.

An’anaviy konfutsiychilikning asosiy tushunchalari quyidagilar: “Li” - urf-odat va marosimlarga rioya etish, udum; “Si” - axloqiy me’yorlarni amalga oshirish; “In” - ijobiy ibtido, “Yan” - salbiy ibtido, “Dao” - osmon, koinot yo’li bo’lib, muayyan tartib va qonunga binoan mavjud, uning ifodasi esa insonning xulq-atvori bo’lishi lozim, “Chjen” - insonparvarlik, “I” - burch, “Sin” - samimiylik va ba’zi boshqalar.

Daosizm Qadimgi Xitoyda shakllangan yirik falsafiy maktablardan biridir. Daosizmning diqqat markazida tabiat, koinot va inson turdi. Bu ta’limot to’g’risida keyingi paragrafda batafsil fikr yuritamiz.

Ismlar maktabi voqelikni til ifodasi masalalari orqali hal qilishga yo'naltirilgan edi. U ashyolar munosabati va shu munosabatlarning o'zini tadqiq etdi, so'ngra esa hukmlar va ismlarning bir-biriga muvofiq kelishini tekshirdi. Bu maktab vakillaridan biri Xuey Shi ko'pgina narsalarning tushunchalarda noadekvat ifodalanishiga e'tiborni qaratgan. U buning sababini narsalarning bir-biriga qiyoslanmasligida, deb bilgan. O'zgacha uslubda fikrlash, bahs-munozara, isbot uchun dalillar keltirish, mavjud goyalarni rad etish va hokazolar ismlar maktabi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Maktab vakillaridan biri Chjuan-szi vafot etgan raqibi to'g'risida, "Men bilan bahs yuritadigan odam qolmadi" deb qayg'urib yozadi.

Ismlar maktabining tafakkur uslubi an'ana mavqeiga ega bo'lgan konfutsiychilik ta'limotiga bardosh bera olmagan. U asta-sekin konfutsiychilikka yaqinlashib, o'zining avvalgi mavqeini yo'qotgan.

Moistlar maktabi o'z ismini uning asoschisi Mo-szi (e.o. 479-431 y) nomidan olingan. Unda asosiy e'tabor ijtimoiy axloq muammolariga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish istibdodiy hokimiyat boshlig'ining qat'iy tashkilotchiligi vositasida namoyon bo'lishi bilan bog'lanadi. Bu maktabda jismoniy mehnat uning tinglovchilarini tarbiyalashning asosiy vositasi hisoblangan. Moistlarning ta'limoti Konfutsiy ta'limotining butunlay qarama-qarshisidir. Uning butun ma'nosi umumiy muhabbat g'oyalari, o'zaro manfaat va muvaffaqiyat qozonishda ifodalanadi. Jamiyatdagi barcha odamlar uchun majburiyat sifatida umumiy o'zaro insonparvarlik me'yori tavsiya etiladi, barcha kishilar bir-biriga foyda keltirish haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim. Nazariy tadqiqotlar - mehnat faoliyatida ko'zda tutilgan amaliy maqsadga muvofiqlik - zaruriyatdir.

Legizm - Qadimgi Xitoyda oziga xos o'ringa ega bo'lgan falsafiy maktablardan biridir. Shen Buxay bu ta'limotning asoschisi deb qaraladi. Bu ta'limotning namoyondalari ko'proq ijtimoiy nazariya muammolari bilan shug'ullanishgan. Unda davlatni boshqarish muammolari ustuvor o'rin

egallagan. Legizm vakillaridan biri Shan Yanning ta'kidlashicha, aqlli kishilar qonun yaratadilar, boshqa odamlar essa mavjud qonun bilan chegaralanadilar. Qobiliyatli kishilar tartibni o'zgartiradi, bunga qodir bo'lmaganlar esa bo'ysunadi. Qonunni bilmaydigan kishi bilan qonun to'g'risida fikr yuritish behuda, aqli kalta, noqobil kishilar bilan o'zgarishlar haqida gapirishning foydasi yo'q.

Bu ta'limotning bosqa bir mashhur vakili Xan Fey-szining fikricha, tartib - har qanday narsaning qiyofasini ifodalovchi tushuncha. Jamiyat hayotidagi tartib - mavjud kamchiliklarni zohiran yashirishdir. Odamlar va hukmdor o'zaro munosabatlarini qayta-qayta qarab chiqishlari zarur. Hukmdor chiqargan qonun va farmonlar ba`zan jamiyat manfaatlariga mos tushmaydi. Chunki ularda mukofat va jazolar tizimi ko'rib chiqilgan, xolos. Inson tabiati esa shaxsiy manfaatdorlik bilan ifodalanadi. Shunday ekan, undan ijtimoiy muammolarni hal etishda foydalanmoq zarur. Fuqaro o'z qobiliyatini foydali narsalarga sarflaydi va undan naf kutadi. Haqiqiy qonun shunday munosabatlarni boshqarishga xizmat qilmog'i lozim. Uningcha jamiyat taraqqiyoti betakrordir. Boshqarish usul va tizimlari yangi ijtimoiy voqelikka mos tushmog'i shart. U o'tmishni mutlaqlashtirib, unga hamdu sanolar yog'dirgan maktablarni ayovsiz tanqid qildi

Xulosa qilib aytganda Qadimgi Xitoyda shakllangan falsafiy ta'limotlar juda rangbarang bo'lib, ularda ilgari surilgan g'oyalarning ko'pchilifi hozirgi zamonda ham qiziqish bilan o'rganilmoqda. Ayniqsa, tarbiya, axloq-odob va boshqa ijtimoiy hodisalar to'g'risida bayon qilingan g'oyalar sharqona qadriyatlar shakllanishida muhim rol o'ynab ktlmoqda.

2. XITOIY FALSAFASIDA NATURFALSAFIY G'UYALARNING O'RNI

Qadimgi Xitoy falsafasiga xos bo'lgan muhim jihatlardan biri shundaki, ontologiya muammolarini yoritishda naturfalsafiy g'oyalar va sodda dialektik uslub vujudga keldi,

Falsafiy tafakkur taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri daosizmdir. Uning asoschisi Lao Zidir (miloddan avvalgi 604 yilda tug'ilgan). U "Yo'nalishlar va fazilatlar haqida risola" (Dao de szin)ning muallifi. Kitobda ta'kidlanishicha, dao yerdagi mavjud barcha narsalardan farq qilib, xudolikning namoyon bo'lishining o'ziga xos ko'rinishidir. Dao oliy mavjudod sifatida barcha real narsalar, hodisalar borlig'i, sodir bo'lishining birinchi sababchisidir. Hamma narsalar u tufayli paydo bo'ladi, oxir-pirovardda yana unga qaytadi.

Daosizmning diqqat markazida tabiat, koinot va inson turdi. Ammo bu ibtidolar mantiqiy - aqliy yo'nalish emas, balki mavjudlik tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri kirib boorish yordamida bilib olinadi. Dunyo hech qanday sabablarsiz doimiy o'zgarish va harakatda bo'lib, rivojlanadi, yashaydi va sirtqi ta'sir natijasida emas, balki ichki sabab natijasida vujudga kelgan. Borliq haqidagi ta'limotda yo'l tushunchasi - dao markaziy maqomdadir.

Daosizm ta'limotiga ko'ra, tafakkurning maqsadi, insonning tabiat bilan qo'shilib ketishidadir, u uning tarkibiy qismidir. Lao-szi uchun "dao" tushunchasi fundamental tushuncha hisoblanadi. Dao to'g'risida u "noaniq", "cheksiz", "o'zgarmas", "makon va zamonda cheksiz", "tartibsizlik va shakl" hisoblanadi, deyiladi. Lao Szi dao Osmon va Yerdan oldin mavjuddir, dao jamiki mavjudotning tug'ilishi va yo'q bo'lib ketishi manbaidir deb ta'kidlaydi. U dao "olam onasi", jamiki mavjud narsalarning boshlang'ich nuqtasi sifatida gavdalanadigan obrazlarni qo'llaydi. Bu yerda Lao Szining "dao" haqidagi fikrlari asosida substansiya muammosi bilan bo'g'liq mulohazalari namoyon bo'ladi.

Lao-Zining fikricha olamdagi, barcha narsalar doimiy harakatda, o'zgarishda. Insonning tabiat bilan o'zaro hamkorligi uning ruhiy barqarorligi,

osoyishtaligini ta'minlaydi. U inson, jamiyatning ortiqcha bezovtaligini, o'ta faolligini ma'qul ko'rmaydi. Uningcha ortiqcha faollik sivilizatsiyani tug'dirib, inson va olam o'rtasidagi garmoniyaning buzilishiga, disgarmoniyaga olib keladi.


Lao Szining olamdagi o'zgarishlarga nisbatan nuqtai nazari o'ziga xos xarakterga ega. U bizning mavjud bo'lishimizda qandaydir asosiy adolat tamoyili amal qiladi, deb hisoblagan. Bunday tamoyilga binoan qandaydir bir holat nihoyatda o'zgacha tusga ega bo'la boshlasa, unda teskari ta'sirlanish yuz beradi: "Baxt-saodat hisoblangan narsa baxtsizlikka aylanadi, baxt-saodatesa baxtsizlik uzra qurilgan bo'ladi". Qandaydir bir holat o'z chegarasiga yetib borganida u o'zining zid tusini egallaydi. Haddan tashqari baxt-saodat qayg'u-alamga o'rin bo'shatadi. Baxti qarolik shodligu sevinchlar bilan o'rin almashadi. Binobarin, qandaydir bir holat o'zining tabiiy chegaralaridan chetga chiqqanida, haddan ziyodlik tantana qilganida bunga aralashadigan qandaydir bir kuch mavjud bo'lishi kerakki, u lozim bo'lishi kerak, yoki lozim bo'ladigan tartibotni qayta tiklaydi.

"Narsalar me'yori"ga amal qilish insonning muhim hayotiy vazifasi bo'lmog'i lozim. Voqelikni bilish osoyishtalik vaziyatida amalga oshadi. Bunday fikr Konfutsiyning ta'limotiga ziddir, chunki u ta'lim-tarbiyaga alohida e'tabor berganligi ma'lum.

Dao de szin tabiat yoki borliqqa oid xitoy falsafasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Bu uni amaliy yo'nalishdagi konfutsiychilik falsafasidan farqlaydi. U, shuningdek, odatda konfutsiychilik an'alariga o'xshagan ayrim markaziy falsafiy qoidalardan ham yaqqol ajralib turadi.

Qadimgi Xitoy falsafasining muhim jihatlaridan biri qarama-qarshi kuchlar mavjud ekanligining e'tirof etilishidir. Qadimgi Xitoy ta'limotlariga ko'ra Dao koinotdagi bo'shliq (noborliq)da tug'iladi. In va yan qarama-qarshi kuchlarining o'zaro ta'sirinatisida koinotdagi bo'shliq - vakuum girdobga aylanadi va unda kuchli portlash sodir bo'ladi. Ushbu spiralsimon olov girdobi ichida Dao embrioni(mirovoe yaytso) tug'iladi. U o'zida jismiy, ruhiy va ma'naviy

mohiyatlarni mujassamlashtiradi. Dao kengayib differensiallashishi natijasida besh element vujudga keladi, bir element o'rtada qoladi boshqalari uning qutblarida gorizontal holatda joylashadi. Shunga nonand ravishda besh ruhiy element ham joylashadi.



Qadimgi Xitoy yodgorligi “Xuaynan szi”da Dao spiralini moddiy elementlar asosida ifodalanadi. Unga ko'ra Dao spiralining har bir bosqichida bu elementlarning holati o'zgarib boradi.

Yog'och mustahkamlanadi, Suv qariydi, Olov tugiladi, Metal maxbusga aylanadi, Tuproq o'ladi.

Olov mustahkamlanadi, Yog'och qariydi, Tuproq tug'iladi, Suv maxbusga aylanadi, Metal o'ladi.

Tuproq mustahkamlanadi, Olov qariydi, Metall tug'iladi, Yog'och maxbusga aylanadi, Suv o'ladi.

Metall mustahkamlanadi, Tuproq qariydi, Suv tugiladi, Olov maxbusga aylanadi, Yog'och o'ladi.

Suv mustahkamlanadi, Metall qariydi, Yog'och tug'iladi Tuproq maxbusga aylanadi, Olov o'ladi.

Xuaynan szi yodgorligida (bu asarni mutafakkir Lyu Anyu nomi bilan bog'lashadi) osmonning har qanday ilohiy ta`siri inkor etiladi va “Tsi” (quvvat-energiya) tushunchasi yangicha talqin qilinadi. Tsi inson hayoti tabiatining ifodasi bo'lib u moddiy tamoyil hisoblanadi va insonning olam bilan tabiiy aloqalarini ta`minlaydi.

Mutafakir Van Chunning fikricha olam osmon va yerning birligi ularning moddiy energiyasi Tsidan iboratdir. Osmonga ham yerga ham hech qanday ilohiy prisib taalluqli. “Narsalar o’z-o’zidan tug’iladi. Bu tabiiylikdir”. Van Chun ta’limotida “Tsi barcha mavjud narsalarga xos bo’lgan moddiy quvvatdir”. Uningcha inson osmon va yer orasidagi tabiy mavjudoddir. Uning ta’limotiga ko’ra narsalarning ichki harakati va narsalar o’rtasidsagi munosabatlarning tartibliligi “in” va “yan” tamoyillarining ta’sirida yuz beradi. Bu tamoyillar jamiyatga ham shunday ta’sir ko’rsatadi. Shuning bilan inson borliqning bir qismi bo’lib uning rivojlanishi tabiiy ekanligi tasdiqlanadi.

3. QADIMGI XITOIY FALSAFIY MAKTABLARI TA'LIMOTLARINING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI

Qadimgi xitoyda shakllangan falsafiy maktablarning ta'limotlari hozirgi davrda ham Xitoy va sharqning boshqa bir qancha mamlakatlarida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu o'rinda Konfutsiychilik ta'limotining o'rnini alohida ta'kidamoq zarur.

Ayniqsa Kann Yuvey (1858-1927) asosan Konfutsiy ta'limotidan kelib chiqib Xitoyni isloh qilish nazariyasini ishlab chiqdi - "Datum" ("Buyuk Birlasuv"). Konfutsiychilikda Xitoy madaniyati asosini ko'rgan mutafakkir fikricha, konfutsiychilik falsafasini har qanday davrda qo'llasa bo'ladi. U Xitoy parlamenti Konfutsiyning surati oldida tiz cho'kish va sajda qilib, duo o'qishni bekor qilganidan g'azablanbdi. Uningcha Buyuk davlat qurish uchun faqat iqtisodiy yutuqlargina muhim bo'lmasdan, balki ma'naviyat va fuqarolarning ma'limot darajasi ham muhimdir. 1914-yilda u vaqtinchalik konstitutsiya loyihasini nashr ettirdiki, unda quyidagicha modda bor edi: "Konfutsiy ta'limotiga muvofiq keladigan axloqiy kamolot milliy maorifning asosini tashkil etadi".

Boshqa bir faylasuf Lyan Sichao (1873-1929)ning ta'limotida "Eskini, an'anani butunlay yangi usullar bilan to'ldirish" muhim o'rin egallagan edi. Xitoyning qoloqligi sababini mutafakkirjamiyatni eskilikka yopishib olishida, boshqarishning mutlaqligida, insonda o'z-o'zidan rozilik, zayiflik, taqdirga tan berish ruhini keltirib chiqargan eski falsafa va axoqda ko'rdi. U o'z qarashlarida dastlab "konfutsiychilikning mafkuradagi zo'ravonligi Xitoy ilmi va fani uchun baxtsizlikdir" deb qaradi. Biroq keyinchalik o'z nuqtayi nazarini o'zgartirib, shunday yozadi: "Bizning mamlakatimiz o'z butunligini saqlab, ikki ming yillik davomida o'z mavjudligini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Buning uchun biz jamiyatimizning ko'zga ko'rinmas asosi bo'lib xizmat qilgan konfutsiychilik ta'limotiga burchlimiz. Shuning uchun ham konfutsiychilikdan kelajakda ham ijtimoiy tarbiyaning mag'zi sifatida foydalanish zarur".

Yevropada ta`lim olgan Yan Fu (1853-1923), Angliya va Fransiyada qunt bilan Smit, Rikkardo, Monteske, Russo, Kant, Bekon, Lokk, Gobbs Kopernik, Nyuton, Darvin asarlarini o`rgandi. Birqancha Evropa faylasuflarining asarlarini Xitoy tiliga tarjima qildi. Ammo birinchi jahon yrushidan keyin G`arb ijtimoiy fikridagi qadriyatlarga bo`lgan munosabatini o`zgartirdi: “G`rb madaniyati ushbu yevropa urushidan so`ng buzildi. Ilgarilari men bizning eski maktabga mansub olimlarimizning shunday kun keladiki, o`shanda Konfutsiy ta`limotini butun bashariyat o`qib o`rganadi, deganlarini eshitganimda, men ularni bema`ni gap, deb o`ylagan edim. Ammo hozirgi vaqtda men shuni tushunaboshladimki, Yevropa va Amerikadagi ma`rifatli odamlarning kupchiligi asta-sekin shunday fikrga kelayotganga o`xshaydi. Mening fikrimcha, G`arb xalqlari o`zlarining uch yuz yillik taraqqiyotlari davomida to`rt asosiy qoidaga erishdilar: xudbin bo`lishlikka; boshqalarni o`ldirishga; kam miqdorda to`g`ri bo`lishlikka; uyatni kamroq his qiishlikka. Konfu va Men-szining asosiy qoidalari ulardan qanday darajada farqli bo`salar, Osmon va Yer ham xuddi shunday keng va chuqurdirarki, ular barchaga va hamma yerda ezgulik qilish uchun tarkib topganlar”*. Yan Funing qarashariga ko`ra qadimgi Xitoyda yaratilgan falsafiy me`ros hozirgi zamonda ham yuksak ahamiyatga egadir. “Yangi madaniyat uchun harakat”ning faol ishtirokchisi sanalgan Li Dachjaoning fikricha, konfutsiychilik va konstetutsiya Xitoy taraqqiyotining zaruriy omili sifatida bir-biriga to`g`ri kelmaydi. U yozadi: “Konfutsiy va uning maslakdoshlari - muayyan davrning mutafakkirlari bo`lib hech qanday o`lchovda barcha zamonlarning ustozlari bo`la olmaydilar”*. Va yana: “Konfutsiyni rad etib men uni shaxsan ag`darmaqchi emasman, balki rohiblar tomonidan Konfutsiydan yasalgan sanam obro`siga putr yetkazmoqchiman. Men unga hamla qilayotganim yo`q, balki istibdodning o`zini mohiyatiga, uning ruhiga hamla qilmoqchiman”* (O`sha yerda 256-b).

Amerikacha pragmatizm g`oyalarini targ`b qilgan, G`arbmamlakatlarning madaniy, ilmiy va texnikaviy yutuqlarini tashviq qilgan Xu Shi (1891-1962) konfutsiychilik me`yorlari va tasavvurlarini tanqid qildi. Uning fikricha Xitoy

jamiyatida inson eski jamiyat institutlari, an`anaviy me`yorlar asoratidadirki, bu narsa jamiyat rivojini sekinlashtiradi.

Hozirgi zamon Xitoy falsafasida muhim o`rin tutgan Mao Szedun (1893-1976) falsafiy qarashlari quyidagi xususiyatlari bilan ifodalanadi:

1. Xitoy falsafiy merosini qaytadan talqin qilib chiqish, xususan qadimgi ta`limotlar bo`lgan konfutsiychilik va legistlarning qarashlarini;
2. Marksizmni Xitoy sharoitiga moslashtirish.

Uning siyosiy qarashlari asosida legistlar ta`limotidan olingan, bir-biriga bog`liq bo`lgan ikki qoida yotadi:

- 1) zo`rlik hech bir istisnosiz barcha ijtimoiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi bo`lib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning umumiy vositasidir;
- 2) tarixiy jarayonda subyektiv (shaxsiy) omil bosh rol o`ynaydi.

Legistlarning bu ikki asosiy hukmi Mao Szedun siyosatining asosiga qat`iy ravishda kiritildi. U Xitoyning taraqqiyoti uchun kuchli markazlashtirilgan davlat zarurligiga ishonar edi. Mao Szedun davlat haqidagi markschanazariyani mafkuraga aylantirib, uning asosida jamiyatda partiyaviy-byurokratik kuchning hukmron bo`lishligini qonunlashtirdi. Mao Szedunning ana shunday davlatni barpo qilishga bo`lgan intilishi marksizm va legizmdan mafkuraviy tayanch sifatida foydalanishni keltirib chiqardi.

Umuman qadimgi Xitoyda shakllangan falsafaning nazariy manbalari, uzoq davr mobaynida yashab kelgan an`analari asosida hozirgi zamon Xitoy falsafasi kamol topdi. Koreya, Yaponiya kabi Uzoq Sharqning rivojlangan mamlakatlarida qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining ta`limotlari, ayniqsa konfutsiychilik ta`limoti muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. XX asrning 80-yillaridan Yaponiya o`quv yurtlarida konfutsiychilikdagi o`z-o`zini tarbiyalash nazariyasining o`qitilishi, Tokio unibersitetida konfutsiychilik falsafasi kursining kiritilishi buning yaqqol dalilidir.

Qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining ta`limotlariga bo`lgan munosabatlar turlicha, ba`zan ziddiyatli, tanqidiy fikrlardan holi bo`lmasada, bugungi kunda ham

ko'pchilik faylasuflarga ilhom bag'ishlab kelmoqda. Qadimgi Xitoy falsafiy me'rosining e'tiborli jihatlari Xuan Tszun-si, Gu Tinlin, Van Chuan-shan kabi mutafakkirlarning ilmiy izlanishlarida targ'ib qilindi, yangi mazmundagi g'oyalar shakllanishi va kamol topishida ijobiy turtki bo'lib xizmat qildi.

Qadimgi Xitoyda falsafiy maktablar ko'p bo'lgan va ular o'zaro raqobatda bo'lishgan. Maktablar o'rtasidagi baxs – munozaralar mantiq ilmiga oid bilimlar shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan/ mantiq, falsafa masalalari bilan ko'proq Mindsui (Nomlar), konfutsizchilar maktabi vakillari shug'ullangan/ mantiqqa oid bilimlar turli traktlarda (risola) yoyilgan bo'lgani uchun ularni moistlar jamlab, Modzi ta'limoti asosida "Mobyen" nomli ensiklopedik traktat tuzganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi, ayniqsa, eramizdan oldingi VII-III asrlar Xitoy falsafasining gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Bu davrni yuz maktab davri deb ham yuritiladiki, bu esa qadimgi Xitoy falsafasining naqadar turli xil oqimlar va yo'nalishlarga boyligini ko'rsatadi. Tarixchilar va faylasuflar ularning barchasini umumlashtirgan holda oltita guruhga ajratadilar: in va yan, konfutsiychilik, daosizm, moistlar, ismlar maktabi, legizm.

Bu yo'nalishlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular yaratgan falsafiy ta'limotlar Xitoy falsafasining o'zagini tashkil etadi.

Qadimgi Xitoy falsafasi Sharq mamlakatlari xalqlarining madaniyati shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatib kelayotgan katta ijtimoiy hodisalardan biridir.

4. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob. Toshkent - 2004.
2. G. Skirbekk, N.Gilye Falsafa tarixi. Toshkent - 2002.
3. История философии в кратком изложении. Пер. с чеш. И. И. Богаута. Москва - 1991.
4. История философии. Под. Ред. В. М. Мапельман, и Е. М. Пенкова. М. 1997.
5. Falsafa.Q.Nazarov tahriri ostida.Toshkent - 2000.
6. Falsafa. E.Yusupov tahriri ostida.Toshkent - 1999.
7. Falsafa. M. Ahmedova. Umumiytahririostida.Toshkent - 2006
8. Философия. Учебник, под. ред. В. Д. Губина. М-1998.
9. Новейший философский словарь. Минск-1999.